

"Chimgan challenge-2024" sport festivalida "O'zkimyosanoat" AJ sport targ'ibotchisi Mardon Kulmetov faxrli o'rinni egalladi

// 12.03.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chimgan-challenge-2024-sport-festivalida-o-zkimyosanoat-aj-s>



"Chimgan challenge-2024" sport festivalida "O'zkimyosanoat" AJ sport targ'ibotchisi Mardon Kulmetov faxrli o'rinni egalladi

Joriy yilning 26-28 fevral kunlari Sport vazirligi tomonidan Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Chimyon qishlog'ida an'anaviy "Chimgan challenge-2024" qishki sport festivali tashkil etildi. Festivalda o'quv-seminarlari, shuningdek, sportning mini-futbol, voleybol, stritbol va stol tennisi turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.



Ushbu tadbirlarda 140 ga yaqin vazirlik, idora va tashkilotlardan 135 nafar sport targ'ibotchilari ishtirok etishdi.

"O'zkimyosanoat" AJ sport targ'ibotchisi Mardon Kulmetov ham voleybol musobaqasida faol qatnashib, jamoasi bilan faxrli 3-o'rinni egalladi.